**Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi faoliyatining (vazifa va funksiyalarining) TAVSIFI**

| T/r | Funksiya nomlanishi | Funksiya doirasida bajariladigan jarayon | Jarayonlarni amalga oshirish uchun javobgar shaxslar (F.I.O hamda lavozimi) |
|---|---|---|---|
| **I. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi** | | | |
| **1.1. O'quv jarayonini metodik ta'minlash va darsliklarni ishlab chiqish bo'limi** | | | |
| 1.1.1. | Agentlik tizimidagi maktablarda vazirlik tomonidan tasdiqlangan davlat ta'lim standartlarining sifatli bajarilishini ta'minlash maqsadida idoraviy mansub tashkilotlar va muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish | Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan Davlat ta'lim standartlarini Agentlik tizimidagi ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarga yuborish<br>Davlat ta'lim standartlarining bajarilishini har chorakda monitoring qilib borish | O'quv jarayonini metodik ta'minlash va darsliklarni ishlab chiqish bo'limi boshlig'i S.M.Nazarov |
| 1.1.2. | Vazirlik tomonidan tasdiqlangan davlat ta'lim standartlari, Agentlik tizimi mutaxassislariga qo'yiladigan malaka talablarining bajarilishi yuzasidan idoraviy nazoratni tashkil etish | Davlat ta'lim standartlari va Agentlik tizimi mutaxassislariga qo'yiladigan malaka talablarining bajarilishini nazorat qilish | O'quv jarayonini metodik ta'minlash va darsliklarni ishlab chiqish bo'limi boshlig'i S.M.Nazarov |
| 1.1.3. | Ilmiy-texnik rivojlanishdan, jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlarini, shuningdek, ularning o'zlashtirish imkoniyatlarini hisobga olgan holda Agentlik tizimidagi maktablarda o'quv rejasi, dasturlar va darsliklarni tasdiqlash uchun vazirlikka taqdim qilish va uzluksiz ravishda takomillashtirish | Agentlik tizimidagi maktablar uchun o'quv rejasi, dasturlar va darsliklarni ishlab chiqishda o'quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlarini o'rganib chiqish hamda o'rganish natijalarini inobatga olgan holda darsliklar ishlab chiqish<br>Ishlab chiqilgan darsliklarni Ilmiy metodik kengash muhokamasidan o'tkazish hamda tasdiqlash uchun vazirlikka yuborilishi masalasini hal qilish uchun rahbariyatga taqdim qilish | O'quv jarayonini metodik ta'minlash va darsliklarni ishlab chiqish bo'limi boshlig'i S.M.Nazarov |
| 1.1.4. | Agentlik tizimidagi maktablarda chet tillarini o'qitishning samaradorligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish | Agentlik tizimidagi maktablarda chet tillarining o'qitilishi natijalarini tahlil qilish hamda o'quvchilarning yana qaysi chet tillarni o'qishga bo'lgan qiziqishlarini so'rovnomalar orqali aniqlash | O'quv jarayonini metodik ta'minlash va darsliklarni ishlab chiqish bo'limi boshlig'i S.M.Nazarov |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | O'rganish natijalaridan kelib chiqib o'qitib kelinayotgan chet tili fanlarining samaradorligini oshirish hamda qo'shimcha chet tili fani (Fransuz tili fanini) o'qitilishini yo'lga qo'yish | |
| 1.1.5. | Agentlik tizimidagi maktablarda metodik jarayonni avtomatlashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalari va pedagogik innovatsiyalarni joriy etishga doir takliflar ishlab chiqish | Agentlik tizimidagi maktablarda metodik jarayonni avtomatlashtirish bo'yicha Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilayotgan kutubxonalarni raqamlashtirish platformasiga takliflar kiritish | O'quv jarayonini metodik ta'minlash va darsliklarni ishlab chiqish bo'limi boshlig'i S.M.Nazarov |
| | | Ishlab chiqilgan platforma orqali o'qituvchilarga metodik yordam ko'rsatish xizmatini yo'lga qo'yish | Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'limi boshlig'i F.X.Yuldashev |
| | **1.2. Baholash va monitoring qilish bo'limi** | | |
| 1.2.1. | Agentlik tizimidagi maktablar bitiruvchilarining respublika va xorijiy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olishni davom ettirishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish | Maktab maslahatchilari tomonidan bitiruvchilarga respublika va xorijiy oliy ta'lim muassasalari to'g'risida ma'lumotlar berib borilishini monitoring qilish | Baholash va monitoring qilish bo'limi boshlig'i X.X.Sobirov |
| | | Oliy ta'lim muassasalariga hujjatlarini belgilangan vaqtda topshirishlari uchun o'quvchilarga maktabni bitirganlik haqidagi shahodatnomalar o'z vaqtida berilishini ta'minlash choralarini ko'rish | |
| | | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyuldagi PQ-5188-son qarori bilan belgilangan imtiyozlardan foydalanish istagida bo'lgan o'quvchilar haqidagi ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasiga yuborish | |
| | **1.3. Moliya-iqtisod boshqarmasi** | | |
| 1.3.1. | Agentlik tizimidagi maktablar tomonidan budjet qonunchiligi buzilishlari profilaktikasi va uning oldini olishga qaratilgan, shu jumladan, axborot texnologiyalari va e'tirof etilgan moliyaviy nazoratning xalqaro standartlarini joriy etish orqali moliyaviy nazoratni amalga oshirish | Agentlik tizimidagi maktablarning bosh buxgalterlari bilan online tarzda budjet qonunchiligidagi yangiliklar hamda ish jarayonidagi mavjud muammolar bo'yicha doimiy ravishda tushuntirish ishlarini olib borish | Moliya-iqtisod boshqarmasi boshlig'i X.R.Shakirov, Jamg'arma mablag'larini boshqarish va moliya bo'limi boshlig'i A.A.Abdullaxanov |
| | | Barcha hisob-kitoblarni budjet hisobi va hisoboti yuritilishini kompleks avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan "UzASBO" dasturiy majmua orqali amalga oshirilishini ta'minlash | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | Moliyaviy yil uchun maktablarning xarajatlar smetalarini o'rnatilgan muddatlarda ro'yxatdan o'tkazish | |
| 1.3.2. | Noqonuniy sarf-xarajatlar va budjet mablag'larining talon-taroj qilinishi holatlari profilaktikasi, oldini olish va aniqlash ishlarini amalga oshirish | Noqonuniy sarf-xarajatlar va budjet mablag'larining talon-taroj qilinishi holatlari aniqlanganda yoki shubha bo'lganda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining Ichki audit va moliyaviy nazorat departamentiga ichki audit tadbirini o'tkazish yuzasidan takliflar kiritish | Moliya-iqtisod boshqarmasi boshlig'i X.R.Shakirov, Jamg'arma mablag'larini boshqarish va moliya bo'limi boshlig'i A.A.Abdullaxanov |
| | | Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining Ichki audit va moliyaviy nazorat departamentining tizimdagi maktablarda o'tkazadigan monitoring tadbirlarida ishtirok etish | |
| **1.4. Ma'naviy-ahloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo'limi** | | | |
| 1.4.1. | O'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning qalbida mustaqillik g'oyalariga sadoqat, milliy iftixor, Vatanga muhabbat va uning taqdiri uchun daxldorlik, fidoyilik tuyg'ularini shakllantirish, ularni turli mafkuraviy xatarlardan himoya qilish ishlarini amalga oshirish | O'quvchilarda Vatanga sadoqat, mardlik va jasurlik xislatlarini tarbiyalash maqsadida harbiy qismlar va harbiy ta'lim muassasalari bilan ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlarda hamkorlikni kuchaytirish | Ma'naviy-ahloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo'limi bosh mutaxassisi G.D.Umarxanova, tizimdagi ta'lim muassasalari rahbarlari |
| | | Tizimdagi barcha ta'lim muassasalarida Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi va Qurolli Kuchlar faxriylari ishtirokida ochiq darslar va davra suhbatlari tashkil etish | |
| 1.4.2. | O'quvchilarning xohish-istaklari va takliflaridan kelib chiqqan holda ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilishga yo'naltirilgan tizimli faoliyat bo'yicha takliflar ishlab chiqish | O'quvchilarning xohish-istaklari va takliflari aniqlash maqsadida so'rovnomalar o'tkazish | Ma'naviy-ahloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo'limi bosh mutaxassisi G.D.Umarxanova, tizimdagi ta'lim muassasalari rahbarlari |
| | | So'rovnoma natijalariga ko'ra o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilishga yo'naltirilgan takliflar ishlab chiqish | |
| 1.4.3. | Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar bilan birgalikda o'quvchi yoshlarga psixologik yordam ko'rsatish bo'yicha Agentlik tizimidagi maktablar faoliyati muvofiqlashtirilishini ta'minlash | Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarni ilg'or tajribalarini umumlashtirish, ommalashtirish hamda hamkorlik ishlarini amalga oshirish | Ma'naviy-ahloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo'limi bosh mutaxassisi G.D.Umarxanova |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1.4.4. | O'quvchi yoshlarda huquqiy, estetik, ekologik tarbiyani rivojlantirish bo'yicha turli tadbirlar tashkil etish | Mamlakatimizdagi tog' tizmalari, qo'riqxonalar, milliy parklar singari betakror tabiat maskanlari hamda o'lkashunoslik muzeylariga ekskursiyalar tashkil etish | Ma'naviy-ahloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo'limi bosh mutaxassisi G.D.Umarxanova |
| | | "Tabiatni asraylik!" mavzusida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarini tashkil etish | |
| 1.4.5. | Iqtidorli o'quvchi yoshlarni aniqlash va o'qitish bo'yicha psixologik-pedagogik va tashkiliy shart-sharoitlar yaratish | O'quvchi shaxsining qobiliyati, psixologik fazilatlari, xususiyatlarining to'laqonli namoyon bo'lishi maqsadida aqliy (intellektual) taraqqiyot darajasini aniqlash uchun psixologik konsiliumlar tashkil qilish | Ma'naviy-ahloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo'limi bosh mutaxassisi G.D.Umarxanova |
| | | Ta'lim, taraqqiyot, tarbiya, kasbiy shakllantirish, o'zaro munosabat, muomala va muloqot sirlari, tengdoshlar munosabati va dunyoqarash, qobiliyat, iqtidor muammolari yuzasidan yakka tartibda, guruh bilan, jamoaviy tarzda mashg'ulotlar uyushtirish | |
| **1.5. Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi** | | | |
| 1.5.1. | Agentlik tizimidagi maktablarning faoliyatini tashkil etish va yaxshilash masalalarini amalga oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish | Agentlik tizimidagi maktablarning faoliyatini tashkil etish va yaxshilash masalalarini amalga oshirish bo'yicha so'rovnomalar o'tkazish | Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i S.B.Shakirova |
| | | Berilgan takliflarni umumlashtirish, amalga oshirish imkoni mavjudligi hamda qonunchilik hujjatlariga muvofiqligi yuzasidan tahlil qilish, saralangan takliflarni Agentlik rahbariyatiga taqdim qilish | |
| 1.5.2. | Agentlik tizimidagi maktablar faoliyatining ta'lim va ijtimoiy jihatdan samaradorligi tahlilini o'tkazish, uni maqbullashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish | Agentlik tizimidagi maktablar faoliyatining ta'lim va ijtimoiy jihatdan samaradorligini summativ baholashdan o'tkazish | Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i S.B.Shakirova |
| | | Baholash natijalarini tahlil qilish va aniqlangan kamchiliklarning kelib chiqish sabablarini aniqlash hamda ularni barataf qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqish | |
| 1.5.3. | O'quvchilar davomatini nazorat qilishni ta'minlash, ushbu yo'nalishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, boshqa jamoat tashkilotlari va huquqni muhofaza qilish organlarining hamkorlikdagi faoliyatini muvofiqlashtirish | O'quvchilar davomatini har kuni nazorat qilish hamda bu borada fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, boshqa jamoat tashkilotlari va huquqni muhofaza qilish organlari bilan doimiy ravishda hamkorlik qilish | Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i S.B.Shakirova |
| | | Farzandining o'qishiga e'tiborsiz munosabatda bo'lgan ota-onalarga nisbatan qonunchilik hujjatlarida belgilangan | Agentlik tizimidagi maktablar |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | javobgarlik choralari qoʻllanilishi boʻyicha huquqni muhofaza qilish organlariga takliflar kiritish | |
| 1.5.4. | Prezident maktablari bitiruvchilarini yetakchi xorijiy oliy taʼlim muassasalariga oʻqishga kirishga tayyorlash | Prezident maktablarida Camridge Assesment xalqaro tashkilotining taʼlim dasturlari asosida oʻqitishni tashkil qilish | Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshligʻi S.B.Shakirova<br>Prezident maktablari bilan ishlash boʻlimi boshligʻi N.K.Baltabayeva |
| | | Oʻquvchilarni xalqaro A-Level sertifikatini olish uchun tayyorlash | |
| 1.5.5. | Agentlik tizimidagi maktablarga malakali va tajribali, chuqur bilimli va mahoratga ega, davlat tilini va chet tillarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va oʻqitishning innovatsion usullarini mukammal oʻzlashtirgan pedagoglarni jalb qilish | Rahbar va pedagoglarni ishga qabul qilish boʻyicha tanlov oʻtkazish | Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshligʻi S.B.Shakirova |
| | | Rahbar va pedagoglarni ishga qabul qilish boʻyicha mehnat qonunchiligi talablari asosida hujjatlarni rasmiylashtirish | |
| 1.5.6. | Pedagogik kadrlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tartibini belgilash | Agentlik tizimidagi maktablarga pedagog kadrlarni tanlash tartibini ishlab chiqish | Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshligʻi S.B.Shakirova |
| | | Belgilangan tartiblarga asosan pedagog kadrlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish choralarini koʻrish | |
| | **1.6. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari boʻlimi** | | |
| 1.6.1. | Agentlik veb-sayti ishini tashkil qilish | Agentlikning rasmiy veb-saytni davlat organlarining rasmiy veb-saytlariga qoʻyilgan talablariga mosligini taʼminlash | Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari boʻlimi boshligʻi F.X.Yuldashev |
| | | Rasmiy veb-saytda Agentlik faoliyatiga oid maʼlumotlarning oʻzbek tili lotin alifbosida, ingliz va rus tillarida doimiy yangilab borilishini nazorat qilish | |
| | | Rasmiy veb-saytda qonun hujjatlari bilan tasdiqlangan bazaviy interaktiv xizmatlarning ishlashini taʼminlash | |
| | **1.7. Xorijiy mutaxassislar bilan ishlash boʻlimi** | | |
| 1.7.1. | Oʻz vakolatlari doirasida xalqaro aloqalarni kengaytirish va uning samaradorligini oshirishga koʻmaklashish, xorijiy va xalqaro | Xorijiy davlatlarda oʻtadigan xalqaro miqyosdagi taʼlimga aloqador tadbirlarda (forum, konferensiya, koʻrgazma, malaka oshirish, qayta tayyorlash) ishtirok etish | Xorijiy mutaxassislar bilan ishlash boʻlimi boshligʻi A.X.Ahmuratov |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | tashkilotlar bilan aloqalarni va hamkorlikni yo'lga qo'yish | O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib boradigan xalqaro va xorijiy tashkilotlari, akkredetatsiyadan o'tgan xorijiy davlat elchixonalari, konsulliklar va vakolatxonlar bilan aloqalar o'rnatish | |
| 1.7.2. | Agentlik tizimidagi maktablar o'quv jarayoniga ta'limning ilg'or shakllarini, pedagogik texnologiyalar va axborot yangiliklarini joriy etish maqsadida xorijiy ta'lim tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish | Ta'lim sohasida faoliyat yurituvchi xalqaro va xorijiy tashkilotlar faoliyatini va ular xizmat ko'rsatgandan keyingi natijalarni tahlil qilish | Xorijiy mutaxassislar bilan ishlash bo'limi boshlig'i A.X.Ahmuratov |
| | | Ta'lim sohasida faoliyat yurituvchi xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan ularning xizmat ko'rsatish shartlarini O'zbekiston qununchiligiga muvofiqlashtirish yuzasidan muzokaralar olib borish hamda shartnoma tuzish orqali foydalanish ularning xizmatlaridan foydalanish | |
| **1.8. Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo'limi** | | | |
| 1.8.1. | Agentlikning markaziy apparati va idoraviy mansub tashkilotlari va muassasalarning xodimlarini o'qitish va malakasini oshirishni hamda ularni xizmat safarlari va stajirovkalariga, jumladan, xorijiy ilmiy-tekshirish, ta'lim muassasalariga va boshqa muassasalarga yuborishni tashkil etish | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi bilan hamkorlikda Agentlikning markaziy apparati xodimlarini o'qitish va malakasini oshirishni amalga oshirish | Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo'limi boshlig'i Z.F.Togayeva Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi direktori D.T.Davidova |
| | | Agentlik huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi tomonidan idoraviy mansub tashkilotlar va muassasalarning xodimlarini o'qitish va malakasini oshirishni amalga oshirish | |
| | | Agentlik markaziy apparati, idoraviy mansub tashkilotlar va muassasalarning Agentlik nomenklaturasiga kiruvchi xodimlarini xizmat safarlariga yuborish | |
| 1.8.2. | Idoraviy mansub tashkilotlar va muassasalarning rahbarlarini, ularning o'rinbosarlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish | Idoraviy mansub tashkilotlar va muassasalarning rahbarlari, ularning o'rinbosarlari lavozimiga nomzodlarni tanlov asosida saralab olish | Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo'limi boshlig'i Z.F.Togayeva Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i S.B.Shakirova |
| | | Nomzodlarni mehnat shartnomasi, ichki mehnat tartibi qoidalari, jamoa shartnomasi va boshqa hujjatlar bilan tanishtirish, ular bilan mehnat qonunchiligiga asosan hujjatlarni rasmiylashtirish | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1.8.3. | Agentlik boshqaruv kadrlari malakasini oshirish uchun nazarda tutilgan mablag'lar doirasida Agentlik tizimidagi maktablar rahbarlari bosqichma-bosqich malakasini oshirishdan o'tishlarini ta'minlash | Malakasini oshirish lozim bo'lgan maktab rahbarlari ro'yxati va bu bilan bog'liq taxminiy xarajatlar miqdorini shakllantirish<br>Xarajatlar smetasi tuzilishi jarayonida malaka oshirish bilan bog'liq xarajatlarni nazarda tutish uchun taklif kiritish va bosqichma-bosqich maktab rahbarlarining malakasini oshirish | Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo'limi boshlig'i Z.F.Togayeva<br>Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi direktori D.T.Davidova |
| **1.9. Yuridik bo'lim** | | | |
| 1.9.1. | Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini, shuningdek, Agentlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish bilan bog'liq boshqa hujjatlarni, shu jumladan, tashabbus ko'rsatilgan loyihalarni belgilangan tartibda vazirlikka kiritish | O'zi yoki boshqa tarkibiy bo'linmalar bilan birgalikda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish<br>Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini huquqiy, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va boshqa turdagi ekspertizalardan o'tkazilishida ishtirok etish<br>Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini belgilangan tartibda kelishish hamda Adliya vazirligi, Vazirlar Mahkamasiga kiritish uchun Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga kiritish | Yuridik bo'lim boshlig'i U.T.Muxammadiyev |
| **1.10. Moddiy-texnik ta'minot bo'limi** | | | |
| 1.10.1. | Vazirlik bilan kelishilgan holda Agentlik tizimidagi maktablarni zamonaviy sport zali, inventar, uskuna va boshqa jihozlar bilan ta'minlash | Agentlik tizimidagi maktablarning sport zali, inventar, uskuna va jihozlarini xatlovdan o'tkazish<br>Xatlov natijalari bo'yicha hududiy va respublika darajasida hal qilinadigan masalalar shakllantirilib ular haqida vakolatli organlarga ma'lum qilish hamda belgilangan tartibda jihozlar bilan ta'minlash uchun Agentlik rahbariyatiga taqdim etish | Moddiy-texnik ta'minot bo'limi boshlig'i M.M.Saidov |
| 1.10.2. | Agentlik idoraviy bo'ysunuvidagi tashkilotlar, Agentlik tizimidagi maktablar bino va inshootlaridan tegishli tarzda, shu jumladan, kuz-qish davrida foydalanish bo'yicha ishlar muvofiqlashtirilishi va monitoring olib borilishini ta'minlash | Ta'lim muassasalarini kuz-qish mavsumiga tayyorlash ishlarini tashkil etish jarayonini joyiga chiqqan holda o'rganish<br>Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan amaliy-uslubiy yordam ko'rsatish | Moddiy-texnik ta'minot bo'limi boshlig'i M.M.Saidov |
| 1.10.3. | Elektr energiyasi, tabiiy gaz, suvdan foydalanishning belgilangan tartibiga rioya | Ta'lim muassasalarining infrastrukturasidan foydalanishni tizimli tashkil etish | Moddiy-texnik ta'minot bo'limi boshlig'i |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | qilishni tizimli tahlil qilish, shuningdek, energiyani tejovchi va innovatsion vositalar va texnologiyalarni joriy etish yo'li bilan ulardan oqilona foydalanish bo'yicha takliflar kiritish | Energiyani tejovchi, innovatsion vositalar va texnologiyalarni joriy etish yo'li bilan ulardan oqilona foydalanish bo'yicha takliflarni Agentlik rahbariyatiga kiritish | M.M.Saidov |
| 1.10.4. | Bino va inshootlarning saqlanishiga doir belgilangan qoidalarga rioya qilmagan rahbarlar va xodimlarni mukofotlarning bir qismidan yoki to'liq mahrum qilish to'g'risida takliflar kiritish | Bino va inshootlarning saqlanishini o'rganish va olingan ma'lumotlarni tahlil qilish<br>Bino va inshootlarning saqlanishiga doir belgilangan qoidalarga rioya qilmagan rahbarlar va xodimlarning ro'yxatini umumlashtirilgan holda Agentlik rahbariyatiga kiritish | Moddiy-texnik ta'minot bo'limi boshlig'i M.M.Saidov |
| 1.10.5. | Investitsiya dasturlarini amalga oshirish doirasida Prezident, ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar bino va inshootlarini rekonstruksiya qilish hamda qurish, shu jumladan, mukammal va joriy ta'mirlash bo'yicha ishlar monitoringini olib borish | Investitsiya dasturlarini amalga oshirish maqsadida Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarning bino va inshootlarini joyiga chiqqan holda xatlovdan o'tkazish<br>Rekonstruksiya hamda qurish, mukammal va joriy ta'mirlash bo'yicha ishlar monitoringini olib borish<br>Qurilish ishlari kech qolayotgan obyektlarida ishlarni jadallashtirish maqsadida mas'ul tashkilotlarga murojaat qilish uchun Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga ma'lumot kiritish | Moddiy-texnik ta'minot bo'limi boshlig'i M.M.Saidov |
| | **II. Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi** | | |
| 2.1. | Agentlik tizimidagi ta'lim muassasalari uchun davlat ta'lim standarti, o'quv rejalari, ta'lim dasturlari va darslik majmualarini ishlab chiqish hamda ularni xarid qilish | Ilg'or tajribalar asosida davlat ta'lim standarti, o'quv rejalari, ta'lim dasturlari va darslik majmualarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash uchun Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga kiritish<br>Qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda darslik majmualarining xaridini amalga oshirish | Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi |
| 2.2. | Agentlik tizimidagi ta'lim muassasalari bitiruvchilarini yakuniy davlat attestatsiyasidan o'tkazish | Ta'lim muassasalari bitiruvchilarini yakuniy davlat attestatsiyasidan o'tkazilishini ta'minlaydi | Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi |
| 2.3. | Ta'lim sohasidagi ilg'or tajribalarni o'rganish va mamlakatimizda joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish, o'qituvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash va sertifikatlashni xorijiy | Ilg'or tajribalarni o'rganish va mamlakatimizda joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish<br>O'qituvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash va ularga xalqaro miqyosda tan olinadigan "Ilg'or o'qituvchi", "Ustoz | Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | mamlakatlarning yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikda amalga oshirish | o'qituvchi" yoki "Professional o'qituvchi" darajali sertifikatlar berish | |
| 2.4. | Rahbar va pedagog kadrlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish, ularning malakasini oshirishga qo'yiladigan davlat ta'lim talablarini ishlab chiqish hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda malaka oshirish kurslarini tashkil etish | Malakasini oshirish lozim bo'lgan maktab rahbarlari ro'yxati va bu bilan bog'liq taxminiy xarajatlar miqdorini shakllantirish | Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi |
| | | Xarajatlar smetasi tuzilishi jarayonida malaka oshirish bilan bog'liq xarajatlarni nazarda tutish uchun taklif kiritish va bosqichma-bosqich maktab rahbarlarining malakasini oshirish | |
| 2.5. | Agentlik tizimidagi ta'lim muassasalarini ilmiy-metodik jihatdan ta'minlash, fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar o'tkazish, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish | Xorijiy tajribalar asosida fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar o'tkazish, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish | Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi |